



## ABDURAHMON JOMIYNING “LAVOYIH” RISOLASIDAGI LOYIHALAR TALQINI VA ULARNING MA‘NO KO‘LAMI

**Muallif:** Amonov Yusuf Hamidovich <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Qarshi davlat universiteti mumtoz adabiyot kafedrası matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishining magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20229669>

### ANNOTATSIYA

Abdurahmon Jomiyning mazkur risolasida tasavvuf ta‘limoti va islom ma‘rifati adabiy va go‘zal uslubda ifoda etilgan. Mazkur risola bir qancha loyihalarni o‘z ichiga olib, mazkur loyihalarni go‘zal bayon etish uchun sharq mumtoz adabiyotida adabiyotida ma‘lum bo‘lgan “nasri musajja” san‘atidan foydalangan. Loyihalardagi murakkab tushunchalarni soddaroq uslubda ifodalash uchun ruboiylardan foydalangan.

**Kalit so‘zlar:** Abdurahmon Jomiy, Erch Afshor, “Lavoyih”, loyihalar, Navoiy, Pahlavon Mahmud, ishq, tasavvuf.

Shayx Nuriddin Abdurahmon Jomiyning mazkur risolasi tasavvuf yo‘nalishida ko‘zga ko‘ringan asar bo‘lib, unda tariqat va islom ma‘rifati ravon uslubda bayon etilgan. Bu haqda hazrat Navoiy shunday deganlar: “Yana “Lavoyih” durkim, so‘fiy mashoyix istilohida bitilibdurkim, andoq risola hech roqimning qalamidin va hech qalamining raqamidin tahrir topmaydur”[3:54]. Undagi loyihalar talqini o‘ziga xos uslublar bilan amalga oshirilgan bo‘lib, so‘z qo‘llanilishi va mazkur so‘zlarni lug‘aviy hamda istilohiy ma‘nolari matn mazmuni bilan nasri musajja sifatida hamohang ravon uslubni ta‘minlaydi va ruboiylar orqali asar poetikasini boyitishga xizmat qiladi. Biz loyihalar talqinida mazkur risolaning loyihalaridan foydalanamiz. Loyihalar tarjima qilishda asosiy tayanch nusxa sifatida Abdurahmon Jomiyning mazkur risolasini to‘g‘rilab zamonaviy nashrga tayyorlagan fransuz tadqiqotchisi Erch Afshorning “Se risola dar tasavvuf” nomli tadqiqot ishidan hamda Jomiyning “Lavoyih dar tasavvuf” risolasining qo‘lyozma varianti, shu bilan birga boshqa yordamchi nusxalardan foydalandik.

### Loyiha

ما جعل الله لرجل من قلوبين في جوفه حضرت بي چون که ترا نعمت هستی داده است در درون تو جز یک دل تنها است  
تا در محبت او یک روی باشی و یک دل و غیر او معرض و بر او مقبل نه آن که یک دلرا بهرصد پاره کنی و هر پاره را در پی مقصدی  
[4:آواره]

### روبعی

ای آن که به قبیلہ ی وفا روست ترا  
بر مغز چرا حجاب شد پوست ترا  
دل در پی این و آن نه نیکوست ترا  
یک دل دارای بس است یک دوست ترا

Tarjima: "Alloh hech kimning ichida ikkita qalb egasi qilib yaratmagan" Misoli yo'q Parvardigor senga hayot va yashash ne'mati berib va senga bitta qalb ne'mati berilganki, toki uning muhabbatiga sodiq va yakdil bo'lib, undan boshqa narsalardan yuz burib xolis unga yuzlanishing lozim. Shu bilan birga senga bitta qalbn berib uni ham bir necha bo'laklarga bo'lib, har bo'lagini turfa behuda maqsadga sarf etishni xohlamaydi.

Ruboiy: Bilki, ( bitta) qiblaga vafo yuzi bilan yuzlanish lozim. Aqlingga ne uchun bosh terisi hijob bo'ldi?! Qalbingni har narsaga giriftor etishing sengayaxshimas. Shunday ekan bitta qalbgga bitta do'st kifoyadir

Mazkur loyiha dastlab oyati karima bilan boshlab, tasavvuf asos e'tibori bilan "Qur'oni Karim" va hadisi shariflarga asoslangan ilmdir. Mazkur oyati karimada Yaratgan hech bir insonni "ikkita qalb egasi" sifatida yaratmaganini zikr etadi. Bu loyihadagi "ikkita qalb egasi" tushunchasi bitta qalbd iymon va kufr, yaxshilik va yomonlik, hidoyat va zalolat, nur va zulmat jam' bo'lmaydi va bu oyat orqali munofiqlarni ikkiyuzlamachiligini botil qiladi. Tasavvuf mashoyixlari oldida bu tushuncha insonning barcha vaziyat va holatlarda doimiy qalbi Allohga bog'liqligini his qilishga undaydi. Zero qalb ne'matini bergan Zot bandasini dunyo va oxiratda tegishli barcha ishda faqat Uning roziligini istashini xohlaydi. Bu yerda bitta nozik nuqta borki, qalbn birlikda va maqsadlarni ko'plik soyasida berilishdir. Chunki to'g'ri yo'l hayotda bitta va u ham bo'lsa Allohning ko'rsatgan yo'lidir, shu uchun u birlikdadir, maqsadlar so'zi ko'plik bu esa shaytonning turli hiyla va nayrang hisoblanadi. Shuning uchun so'fiylar qalb amaliga e'tiborlari katta bo'lgan. Xususan, xorazmlik shoir va so'fiy Pahlavon Mahmud mazkur ruboiysida shunday vashf etadi.

Yak dam dili mardonayi farzonayi mo,

Xoli nashavad zi ishqiq jononayi mo.

On dam, ki sharobi oshiqi dardonand,

Dar xuni jigar zadand paymonayi mo. [4:429]

*Tarjima: Bizning farzona dilimiz bir lahza ham Allohning ishqidan xoli emas. Oshiqlik sharobi tarqatgandi, paymonamizni jigar qoniga botirdilar.*

### Loyiha

ما سوی حق عز و علا در معرض زوال است و فنا. حقیقتش معلومیست معدوم. و صورتش موجودی موهوم. دل از همه برکن و در خدا بند و از همه بکسل و با خدای پیوند اوست که همیشه بوده و همیشه باشد و چهره ی بقایش را خارج هیچ حادثه نخراند

رباعی

هر صورت دلکش که ترا روی نمود

خواهد فلکش زود ز چشم تو ربود

رودل بکسی ده که در اطوار وجود


بودست همیشه با تو می خواهد بود.

Tarjima: Haq Azza va A'lo zotdan boshqa barcha narsa foni va zavolga yuz tutuvchidir. Haqiqati ma'lumdir, lekin (kayfiyati maxluqotlar uchun ma'dumdir) Zoti mavjuddir, ammo (maxluqotlar tasavvuridan xoli). Qalbingni barcha narsadan poklab, uni Allohga bog'la. Baridan uzilib Yaratganga (vujudingni) bog'la. U doim bor va mavjud bo'lib, Uning abadiylik sifati hech qachon nuqsonli bo'la olmas.

Ruboiy: Go'zal suratlar qachonki senga yuzlanar ekan, darhol seni o'ziga qaratib olmoqchi ( o'ziniki) qilib olmoqchi bo'ladi. Lekin sen qalbingni shunday suratga bergilki, doim sen bilan birga bo'lib, bundan keyin ham sen bilan bo'lsin !

Bu loyihada shu narsa ta'kidlaydiki, Yaratgan zotdan boshqa barcha narsa vaqtinchadir, negaki barcha makon va zamonga xos moddiy va ma'naviy narsalarni Yaratganning o'zi yaratgan va U Zot ularning barchasidan pok va munazzahdir. Uning kayfiyati hech kimga ayon emas va U bordir. Biron maxluqot uni xayoliga keltirmagan va keltiraolmaydi. Shunday ekan sen doimiy bor bo'lgan va zavol topmaydigan Zotga qalbingni burishni mantiqan ifodalab berayapti. Hazrat Navoiy ham mazkur ma'noga yaqin o'zlarining baytlari ham bor:

Yo'q erdi har ne bor, Ul qildi izhor,  
Borin yo'q aylobon ham bo'lg'usi bor.[5:127]



Moyem ba rohi ishq puyon hama umr,  
Yak chasm zadan xiyoli tu peshi nazar,  
Vasli tu va jiddu jahdjo'o'yon hama umr.  
Behtar ki jamoli xubro'yon hama umr.

Bu ruboiy "Lavoyih" risolasining 3-loyihasi, Yaratganning mutlaq borligini odalangan loyiha sharhiga bag'ishlangan. Mazkur ruboiyda tasavvuf va ruhiy tarbiya uchun juda kerakli va barcha oriflar intiqib sog'inadigan va kutadigan bir lahzani qiymatini bayon qilib aytadiki, mazkur go'zallik va shu go'zallikni his qilish butun dunyo va undagi barcha go'zallini mujassam etgan narsalar ila bir umr vaqt o'tkazsa ham haqiqiy go'zallik ila mashg'ul bo'lgan bir soniyani o'rnini bosolmaydi, zero haqiqiy go'zallik doimiy bor va zavol topmaydi va vaqtincha go'zallik esa bir muddat ila o'tib ketadi. Haqiqiy va olam sirlaridan ogoh inson doimiy go'zallik oshig'idir. Shunday ekan bu dunyo va undagi narsa insonni chalg'itishga arzimaydi. Bu ma'nodagi ruboiylarni Pahlavon Mahmud ijodida ham kuzatish mumkin.

Ishq biyobonida yurmoq ham mushkul,  
Undan oyoq yig'ib turmoq ham mushkul,

Hammadan mushkulroq shuki, har joyda  
Yoring ma'lum, lekin ko'rmoq ham mushkul.[6:18]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdurahmon Jomiy (muallif) tadqiqotch Erch Afshor. "Se risola dar tasavvuf". "Manuchehr nashriyoti", Kitobxonayi Milliyi Eron, 1931. – 203 b.
2. Adurahmon Jomiy. "Lavoyih dar tasavvuf". Qo'lyozma varianti, Kitobxonayi elektroni forsi. –100 b.
3. Alisher Navoiy. "Xamasatu-l- mutahayyirin" . Zamonaviy nashr, www.ziyo.uz kutubxonasi. – 66 b.
4. Najmiddin Komilov. "Tasavvuf". – Toshkent: "Movarounnahr", 2009.– 448 b.
5. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид. "Навоийдан чу топқайлар навое". – Тошкент: "Hilol" nashr. –261 - bet.
6. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. Zamonaviy nashr, library.ziyounet.uz/.–28b.